

4. Торешова А.У., Хусеинова М. Орол бўйи маҳаллий эчкиларининг айрим биологик хусусиятлари. Агро Процессинг журнали № 5 сон 2 жилд. Тошкент-2020. Б-50-54.

5. Торешова А.У., Продуктивные особенности коз в северном регионе Каракалпакстана. LAPLAMBERDAcademicPublishingRU. Монография. 2019 г. С-80.

6. Торешова А.У., Шимолий Қорақалпоғистон ҳудудида ҳар хил сақлаш шароитида эчкиларнинг маҳсулдорлик хусусиятлари. Автореферат. Самарқанд. 2019 й. Б-45.

7. Toreshova. A.U. Living mass and exterior peculiarities of local goats of Karakalpakstan. SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH (SAJMMR) Vol. 10, Issue 4, April Spl Issue 2020, ISSN: 2249-877X Impact Factor: SJIF = 7.11 P/N 48-50

8. Торешова А.У., Молочные особенности местных коз в северных регионах Республики Каракалпакстан. Международный электронный научный журнал “Journal of technical science and innovation” (Том-1, №3, Март 2020 года) 75-78 б.

9. Meat productivity of young local goats in the conditions of karakalpakstan. ACADEMIKA An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 5, Issue 5, May 2021, ISSN: 2249- 7137 Impact Factor: SJIF = 7.13 P/N 817-821

10. Characteristics of goats productivity in the conditions of Karakalpakstan. International Journal for Innovative Engineering and Management Research Vol. 11, Issue 04, 2022, Pages 526-531

QORAQALPOG’ISTON SHAROITIDA ANGUST ZOTLI QORAMOLLARGA SILOS TAYORLASH TEXNOLOGIYASI VA KIMIYOVIY TARKIBINI ANIQLASH

Eshmuratova G.Yu.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Аннотация. Мақоллада, Қорақалпоғ’истон Республикаси Беруний тумани “Shukurullo Bobojonov” фермер хо’jaligina boqiladigan mollarni qishda toyimli va proteinli oziq bilan ta’minlash maqsadida oziq zahirasini toplash uchun, o’z ekin maydonlarida etishtiradigan makkajo’xori o’simligidan silos tayorlash texnikasi tog’risida malumot keltirilgan.

Калит созлар. Ангус, зот, го’схторлик, toyimli oziq, silos, kultivatsiya, doni sultiligi, osh tuzi, karbonit, ximikat, mineral token.

Киреш. О’zbekiston Республикаси Президенти Sh.Mirziyoevning 2022-yil 8-fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-121-sonli qarorida, ozuqa bazasini yetishtirish uchun sug’oriladigan yer maydonlari yetishmovchiligi mavjud bo’lgan tumanlarga go’sht va sut mahsulotlariga bo’lgan iste’mol talabini to’liq qondirish maqsadida kooperatsiya usulida go’sht va sut mahsulotlarini yetishtirish va qayta

ishlashni yo'lga qo'ygan xo'jalik yurituvchi subektlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar chegaralari doirasida bir tumanda kooperatsiya usulida go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish hamda boshqa tumanda ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun elektron tanlov asosida sug'oriladigan yerlar ajratishni ta'minlasin. Bunda, kooperatsiya usulida faoliyat olib boruvchi subektlarga mazkur qarorda belgilangan barcha imtiyozlar qo'llaniladi delingan [1].

Biz ilmiy ishimizni olib borib turgan Qoraqalpog'iston Respubliasi Beruniy tumani Shaffof OFI da joylashgan Shukurullo Babojonov fermer xo'jaligida o'zlarining er maydonlarida egip, parvarishlab, pishirip etildiradigan song qishga eng sifatli ozuqa xisoblangan silosni tayorlash jarayonini tasvirlap bermoqchiman.

Silos (ispancha silos-ertula, don saqlanadigan ura) – chorva mollari uchun o'simlik (makkajo'xori, kartoshka, kungabaqor, suli aralashmalari, ildizmevalar, tabiiy pichanzorlar o'tlari, poliz ekinlari palaklari va boshqalar) ko'k poyalarini havo kirmaydigan qilib kontservalash yoli bilan tayorlanadigan ozuqa [2].

Siloslash – murakkab mikrobiologik jarayon sut kislotasi bakteriyalarining hayotiy faoliyati tufayli anaerob sharoitda shakarlarning sut kislotasi fermentatsiyasi jarayonida hosil bo'lgan sut kislotasi bilan suvli o'simlik massasini kantservatsiya qilish.

Silosda o'simlikning barcha tarkibiy qismlari- barglar, poyalar, gulto'plamlari aniq ko'rinib turishi, ezilgan shilimshiq holda bo'lmasligi, chirigan sassiq mog'or va boshqa hidlar bo'lmasligi kerak. Silos kimyoviy va ko'zdan kechirish ko'rsatkichlariga ko'ra I, II, III sinflarga va sinfsiz (yaroqsiz)larga ajratiladi.

Qo'ng'ir va to'q jigarrang, asal yoki yangi pishirilgan nonning o'tkir hidiga ega silos sinfsiz (yaroqsiz) hisoblanadi. Mog'or bosgan yoki chirigan o'simlik aralashgan silosni mollarga berish ma'n etiladi. Sifatsiz silos ot, bo'g'oz va emizadigan mollarga (qoramol, qo'y, echki, cho'chqalar) ayniqsa zararli ta'sir qiladi. Agar bir siqim silos qo'lda siqilganda rangi yuqsa, unda o'simlik qismlari ko'rinmasa bunday silos buzilgan hisoblanadi va mollarga berib bo'lmaydi [3].

Qishda fermer xo'jaliklaridagi qoramollarni sifatli oz'iqqa bilan ta'minlash, issiq kunlarga salomat olib chiqish har bir fermer xo'jaligidagi shaxsning boshli vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqot materiallari va uslubi. 3 - 4 xil markadagi traktorlar, azotli mineral og'itlar, qurtga qarshi ximikatlar va plastik polietilen plyonka.

Bahor oyi kelishi bilan, aprel oyi boshlarida Biz ilmiy ish olib borib turgan Beruniy tumani Shimam OFI da joylashgan "Shukurullo Babojonov" fermer xo'jaligi 104 Ga er maydoniga makka egish ishlari boshlanadi.

Birinchi qilinadigan ish bu Class kombayni bilan erni surish xisoblanadi. Song 60-70 Golland traktor va MTZ-80 traktorlari bilan mala boshiladi.

Song aprel oyi 20-sanasiga qadar Vakuimli seelka bilan ekish boshlanadi. Har bir gektar maydoni uchun 17-18 kg tuxum toshlanadi.

Tuxum unib chiqqash boyi 5-7 sm bo'lganda birinshi ishlov kultivator bilan azotli token beriladi. Har bir gektar uchun 250 kg. Boyi 15 sm etkanda qurtga qarhi ximikat bilan ishlov beriladi. Boyi 40-50 sm bo'lgan paytda ikkinchi kultivatsiya beriladi va har bir gektariga 300 kg mineral token beriladi.

Keyingi masala erdagi kushatlarni suvgarishga tayorlaymiz. Qoriq yorib bolgash vaziyatga qarab 2-3 marotaba suvg'oriladi.

Donni mumsimon pishib etish bosqichida, o'rtacha namlik 60-70% bo'lganda, silosda makkajo'xori yig'ishda kesish uzunligi 10-20 mm bo'lishi kerak. O'simlik hujayralaridan sharbat chiqarishni kamaytirish uchun sut-mumsimon pishgan o'simliklar 30-35 mm bo'laklarga, sut pishganligi esa 40-45 mm ga kesilishi kerak. Kesish uzunligini kombaynlarni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq maydalagich pichoqlarining bir qismini olib tashlash orqali oshirish mumkin [4].

Doni sutli bo'lgan paytta oraqni boshlaymiz va bu ishni mayda qilib o'radigan Class Jaguar kombayni bilan amalga oshiriladi. Tez pat bilan o'rib olish zarur.



Bir gektar erdan ortacha 500Ts (50 t) o'nim olinadi.

Beton transheyaga joylanadi va Gusennitsa traktori yoki balon rezinkali traktor bilan tepkilanadi va buning uchun kamida 4-5 soat vaqt ajratiladi.

Trombovka yaxshi bo'lishi uchun ishda foydalanib turgan texnika ahamiyatli. Traktor salmog'i 2,5 tonnadan 4 tonnagacha bo'lishi kerak. Trombovshik engil bo'lgan sari ko'p kuch va vaqt talab etiladi.

Trambovkadan song silos massasidagi temperatura o'lchanishi kerak. Buning uchun termometr foydalaniladi. Agar temperatura yuqori bo'lsa kislorodning ko'pligidan darak beradi.

Trambovka paytida gigiena qoidalari ham e'tibor berilishi kerak [5].



song tuz sepiladi (1t uchun 3-5 kg) + karbonit (1 t uchun 200-300gr).



Olingan natijalar va ularni tahlili. Trambovkasi yaxshi ishlanib bo'lingach, ustiga plastik polietilen plyonka yoyib, siboy qilinadi. Biz ilmiy ish qilib turgan fermer xo'jaligimizda jami 4ta beton transheya mavjud. O'larning 2 tasi sig'imligi 1,200 tonna, 1 tasi 1000 tonnani va 1 tasi 600 tonna sig'imligiga ega hisoblanadi.



Tayor bo'gan silos 30-35kun o'tkach istemolga yaroqli xisoblanadi.

Xulosa: Makkajo'xori silos uchun mum va sut-mum pishiqlik davrida o'riladi. Sababi shu davrda 1 kg makkajo'xori silosining to'yimligi 0,25-0,28 ozuqa birligiga teng va namligi 70-75% atrofida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-yil 8-fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-sonli qarori
2. 100 kitob to'plami. Silos va senaj tayorlash 98-kitob
3. ООО «АБК» «БиоВита»
4. Сельскохозяйственные вести. Журнал для специалистов агропромышленного комплекса